JOURNALFLEDU.COM
Foreign Languages in Uzbekistan

Scientific Electronic Journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2026, vol. 12, No 5 (70), pp. 242–268
https://journalfledu.com
ISSN: 2181-8215 (online)

THE POETICS OF SCIENCE FICTION IMAGERY AND THE FUNDAMENTAL THEORETICAL PRINCIPLES OF MODELLING FICTIONAL REALITY

Ma'suma Qosimjon qizi Obidjonova

Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
obidjonovamasuma001@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-0280-8305
https://doi.org/10.36078/1794219630

(received: September 01, 2026; revised: October 14, 2026; accepted: October 20, 2026)

Abstract. This article examines the principles underlying the construction of images in science fiction and the models of fictional reality that these images help to create. It approaches science fiction images not merely as descriptive or plot-related elements, but as devices through which scientific hypotheses, literary imagination, and the modelling of alternative realities interact. The study aims to identify the functions and poetic features of these images and establish their relationship to different models of fictional reality. Based on their functions within a literary work, science fiction images are classified into four types: anthropocentric, alter, technogenic, and reificational. Their roles are analysed in relation to chronotopic, technological, anthropological, and social models of fictional reality. The study employs comparative typological, structural-semantic, and contextual analysis, alongside an analysis of literary poetics. The findings indicate that the classification of images and the modelling of fictional reality concern distinct but interconnected levels of textual organisation. An image gives concrete form and emotional and aesthetic expression to a model, while the model provides a conceptual framework for organising the fictional reality of a work. The analysis also explores how the fantastic premise shapes plot development, relationships among images, the meanings of space and time, and characters' actions. A comparison of Uzbek and English literary works suggests that, despite differences between national traditions of science fiction, both use alternative fictional realities to reinterpret real-world problems. The proposed approach offers a framework for the systematic study of images and the modelling of fictional reality in science fiction.

Keywords: science fiction; science fiction images; fictional reality; modelling of fictional reality; anthropocentric images; technogenic images; fantastic premise.

ILMIY-FANTASTIK OBRAZLAR POETIKASI VA BADIIY VOQELIKNI MODELLASHTIRISHNING ASOSIY NAZARIY TAMOYILLARI

Ma’suma Qosimjon qizi Obidjonova

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. Maqolada ilmiy-fantastik adabiyotda obraz yaratishning poetik tamoyillari hamda ular asosida shakllanuvchi badiiy voqelik modellari tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ilmiy-fantastik obrazni faqat tasviriy yoki syujetga xizmat qiluvchi birlik sifatida emas, balki ilmiy faraz, badiiy tafakkur va muqobil voqelikni modellashtirish jarayonlarini birlashtiruvchi poetik vosita sifatida talqin qilish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotning maqsadi ilmiy-fantastik obrazlarning badiiy voqelikni yaratishdagi o‘rnini aniqlash va ularning turli badiiy modellar bilan bog‘liqligini ochib berishdan iborat. Shu maqsadda obrazlar badiiy voqelikdagi vazifasiga ko‘ra antropotsentrik, alter, texnogen va reifikatsion turlarga ajratiladi. Ularning xronotopik, texnologik, antropologik va ijtimoiy modellar doirasidagi poetik faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, poetik, struktur-semantik va kontekstual tahlil usullaridan foydalaniladi. Tahlil natijasida obraz tasnifi va badiiy model o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, matnning turli poetik darajalarini ifodalovchi hodisalar ekani asoslanadi. Obraz muayyan badiiy birlik sifatida model mazmunini aniqlashtirsa, badiiy model asar voqeligini tashkil etuvchi konseptual tamoyil vazifasini bajaradi. Shuningdek, xayoliy tasavvurning syujet va obrazlar tizimidagi harakati aniqlanib, uning voqealar rivoji, makon va zamon semantikasi hamda qahramonlar harakatiga ta’siri ko‘rsatiladi. O‘zbek va ingliz adabiyotining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ilmiy-fantastikaning milliy shakllari turlicha bo‘lsa-da, uning real voqelikni muqobil va konseptual shakllarda qayta talqin qilishda ular umumiy poetik asosga ega.

Kalit so‘zlar: Ilmiy-fantastika; fantastik obraz; badiiy voqelik; badiiy model; antropotsentrik obraz; texnogen obraz; xayoliy tasavvur.

Kirish

Badiiy adabiyot insonning borliq haqidagi tasavvurlarini bevosita bayon qilmaydi, balki ularni obraz, syujet, makon, zamon va badiiy tafakkurning boshqa shakllari orqali qayta ifodalaydi. Shu ma’noda badiiy obraz voqelikning oddiy nusxasi emas, balki uni anglash va qayta qurishning o‘ziga xos shaklidir. Ilmiy-fantastik adabiyotda bu xususiyat yanada murakkab tus oladi. Chunki bunday matnda tasvirlanayotgan voqelik mavjud tajribaga to‘la mos kelmaydi, ayni paytda u mutlaq mavhumlikka

ham asoslanmaydi. Ilmiy faraz, texnologik imkoniyat, kosmik makon, vaqtning o‘zgarishi, inson tabiatining modifikatsiyasi yoki sun’iy intellekt kabi hodisalar badiiy tasavvur orqali yangi mavjudlik shakliga keltiriladi. Natijada ilmiy-fantastik obraz bir vaqtning o‘zida estetik, gnoseologik va konseptual vazifalarni bajaradi. Ilmiy-fantastik obrazlarning ushbu funksional tabiati badiiy voqelikni modellashtirish muammosiga olib keladi. Obrazlar o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lmaydi. Ular makon, zamon, syujet, muhit, texnologiya va ijtimoiy munosabatlar bilan aloqaga kirishib, asarning yaxlit voqeligini hosil qiladi. Shu sababli ilmiy-fantastik matnni faqat unda qanday obrazlar mavjudligi orqali emas, balki ushbu obrazlar *qanday voqelikni tashkil etayotgani* orqali ham o‘rganish zarur. Bunda “badiiy model” tushunchasi alohida metodologik ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy-fantastikaga doir zamonaviy tadqiqotlarda bunday muammolar turli nazariy nuqtalardan o‘rganilgan. D. Suvin ilmiy-fantastik matnning o‘ziga xosligini kognitiv begonalashuv va “novum” tushunchalari orqali asoslaydi [Suvin, 1979]. C. Freedman ilmiy-fantastik adabiyotning muqobil voqelik yaratish imkoniyatiga e’tibor qaratadi [Freedman, 2000]. S. Spiegel esa begonalashtirish tushunchasining ilmiy-fantastika nazariyasidagi o‘rnini tahlil qilib, fantastik matnda tanish hodisaning yangi kontekstda qayta ko‘rinishini muhim poetik jarayon sifatida ko‘rsatadi [Spiegel, 2008]. K. D. Malmgren ilmiy-fantastik matndagi “self” va “other” munosabatini o‘rganar ekan, begona mavjudot obrazining insoniyat haqidagi tasavvurlarni qayta ko‘rib chiqishga xizmat qilishini ko‘rsatadi [Malmgren, 1993: 15–33]. Texnologik obrazlarning ilmiy-fantastik adabiyotdagi mavqeyi ham alohida tadqiqotlarni yuzaga keltirgan. N. K. Hayles texnologiya va inson subyektivligi o‘rtasidagi munosabatni posthumanizm kontekstida tahlil qiladi [Hayles, 1999: 2]. H. Osawa, D. Miyamoto, S. Hase, R. Saijo, K. Fukuchi va Y. Miyake ilmiy-fantastik asarlarda sun’iy intellekt va robotlarning tasvirlanish shakllarini katta hajmdagi material asosida o‘rganib, turli funksional kategoriyalarni ajratadi [Osawa et al., 2022: 2123–2133]. Bunday tadqiqotlar texnologik obrazning ilmiy-fantastika poetikasidagi mavqeyini aniqlash uchun muhim bo‘lsa-da, obrazning umumiy funksional tasnifi bilan badiiy voqelik modeli o‘rtasidagi munosabat masalasi alohida tizimlashtirishni talab qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham fantastika va ilmiy-fantastika masalalariga oid tadqiqotlar shakllanib bormoqda. Muallifning avvalgi maqolasida ilmiy-fantastikaning janriy chegaralari, fantastikaning mazmuniy va shakliy janrlar bilan munosabati hamda uning metajanr sifatidagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Ushbu maqolada esa masala boshqa darajaga ko‘tariladi: janrning umumiy chegaralari emas, balki uning ichki

badiiy ifoda usulilaridan biri bo‘lgan obraz va badiiy model munosabati markazga chiqariladi.

Tadqiqotning *maqsadi* ilmiy-fantastik obrazlarning funksional-poetik tabiatini aniqlash va ular asosida shakllanuvchi badiiy voqelik modellarini tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqsad doirasida ilmiy-fantastik obrazlarni tasniflashning mavjud mezonlarini qiyosiy ko‘rib chiqish, obrazlarning badiiy voqelikdagi funksiyalarini aniqlash, antropotsentrik, alter, texnogen va reifikatsion obrazlarning o‘ziga xos belgilarini ochish, badiiy model tushunchasining obraz tushunchasidan farqini asoslash hamda xronotopik, texnologik, antropologik va ijtimoiy modellarni aniqlash *vazifalari* belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi, avvalo, ilmiy-fantastik obrazni uning tashqi obyekti asosida emas, balki badiiy voqelikni tashkil etishdagi funksiyasi asosida tasniflash taklifida ko‘rinadi. Shuningdek, obraz tasnifi bilan badiiy modelning turli nazariy darajalarga mansubligi asoslanadi. Obraz konkret badiiy birlik sifatida namoyon bo‘lsa, model shu birliklar va boshqa poetik vositalarni birlashtiruvchi yetakchi konseptual tamoyildir. Shu sababli bir asarda bir nechta obraz turi va bir nechta model bir vaqtda mavjud bo‘lishi mumkin, biroq ularning o‘zaro munosabatida muayyan dominantlik yuzaga keladi. Mazkur yondashuv ilmiy-fantastika poetikasini faqat kelajak tasviri, texnologik yangilik yoki fantastik hodisalar yig‘indisi sifatida emas, balki muqobil mavjudlikni badiiy tashkil etish tizimi sifatida o‘rganishga imkon beradi. Ilmiy-fantastik matnda yangi obrazning paydo bo‘lishi ko‘pincha yangi voqelik tartibining paydo bo‘lishini ham anglatadi. Shuning uchun obraz poetikasini badiiy model muammosidan ajratib o‘rganish ilmiy-fantastikaning ichki estetik mexanizmlarini to‘liq ochib berolmaydi.

Nazariy qism

Ilmiy-fantastikaning badiiy tabiatini belgilashda uning fantastika bilan munosabati alohida ahamiyatga ega. Fantastika tushunchasining o‘zi adabiyotshunoslikda bir ma’noli kategoriya sifatida shakllanmagan. S. Todorov fantastikani kitobxonning real va g‘ayritabiiy tasvir o‘rtasida yuzaga keladigan ikkilanishi bilan bog‘laydi. Bunda fantastik hodisaning o‘zi emas, balki uning qabul qilinish jarayoni muhim poetik mezonga aylanadi. Ilmiy-fantastika esa bunday chegaraviylikni ilmiylik, ehtimoliylik yoki ratsional izohlashga intilish bilan o‘ziga xos tarzda birlashtiradi. D. Suvinning “kognitiv begonalashuv” konsepsiyasi ham aynan shu jihatni tushuntirish imkonini beradi: ilmiy-fantastik matn kitobxonni tanish dunyodan farqlanuvchi voqelikka olib kiradi, biroq yaratilgan farq muayyan bilish va tafakkur mexanizmlari orqali anglashiladigan bo‘ladi [Suvin, 1979]. Badiiy model va kompozitsiya tushunchalarini

aynanlashtirish ham ilmiy-fantastik matn tahlilida ma’lum chalkashliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Kompozitsiya badiiy materialning asar ichida joylashishi va o‘zaro tashkil topish usullarini bildiradi. Model esa asar voqeligini tashkil etuvchi yetakchi konseptual prinsip bilan bog‘liq. Masalan, voqealarning kelajakda kechishi asarning xronologik belgisi bo‘lishi mumkin, biroq kelajakning qanday konsepsiya asosida yaratilgani xronotopik model masalasidir. Xuddi shuningdek, robotning asarda ishtirok etishi texnologik obraz mavjudligini bildiradi, lekin inson va texnologiya o‘rtasidagi munosabat asarning asosiy muammosiga aylansa, texnologik model haqida gapirish mumkin.

Mazkur farqlash ilmiy-fantastik badiiy voqelikni tahlil qilish uchun muhim nazariy imkoniyat yaratadi. Obraz tasnifi “asarda qanday obraz mavjud?” degan savolga javob bersa, model “asar voqeligi qaysi yetakchi konsepsiya atrofida qurilgan?” degan savolni qo‘yadi. Shu sababli bir xil obraz turli asarlarda turlicha modelning tarkibiy qismiga aylanishi mumkin. Robot bir matnda texnologik taraqqiyotning ramzi, boshqa matnda insonning axloqiy mas’uliyatini sinovdan o‘tkazuvchi subyekt, yana bir asarda esa ijtimoiy boshqaruv tizimining vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Obraz muammosi umumiy adabiyot nazariyasida ham markaziy masalalardan biridir. I. Sulton badiiy obrazni adabiyotning voqelikni o‘zlashtirish va ifodalash vositalaridan biri sifatida izohlaydi [Sulton 2005: 27]. D. Quronov obrazning konkretlik va umumlashma xususiyatlarini birlashtirishiga, uning badiiy tafakkur jarayonidagi vazifasiga e’tibor qaratadi [Quronov, 2004: 63]. B. Sarimsoqovning badiiylik haqidagi qarashlari esa badiiy obrazning estetik mazmunni yuzaga chiqarishdagi o‘rnini anglash uchun muhim nazariy asos beradi [Sarimsoqov 2022: 7]. Fantastik obrazga murojaat qilinganda ushbu umumiy nazariy mezonlar bilan bir qatorda xayoliy tasavvurning qanday badiiylashtirilgani, obrazning mavjud voqelikdan qay darajada uzoqlashgani va uning asar konsepsiyasidagi vazifasi ham hisobga olinishi kerak.

Material va metodologiya

Tadqiqot *materiali* sifatida ilmiy-fantastika nazariyasiga oid ilmiy ishlar bilan bir qatorda R. Bredberi, A. Azimov va boshqa ilmiy-fantastik adiblarning asarlaridan foydalaniladi. Badiiy materialni tanlashda obrazning faqat fantastikligi emas, balki uning voqelikni tashkil etishdagi funksiyasi asosiy mezon sifatida olinadi. Bu yondashuv ilmiy-fantastik obrazlarni alohida motivlar katalogiga aylantirib qo‘ymasdan, ularning poetik tizimdagi o‘rnini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, struktur-semantik, poetik va kontekstual tahlil usullaridan foydalaniladi. Qiyosiy-tipologik usul turli milliy adabiyotlarda uchraydigan ilmiy-fantastik obrazlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Struktur-semantik yondashuv obrazning matn ichidagi vazifasi va ma'no hosil qilish mexanizmini ochishga yo'naltiriladi. Poetologik tahlil obrazning ilmiy farazni badiiy shaklga aylantirishdagi rolini aniqlashga imkon beradi. Kontekstual yondashuv esa obrazning falsafiy, antropologik, texnologik va ijtimoiy mazmunini kengroq madaniy jarayon bilan bog'lab talqin qilish uchun qo'llanadi.

Ilmiy-fantastikaning janriy maqomi masalasi ham shu nazariy murakkablik bilan bog'liq. Uni faqat roman, qissa yoki hikoya kabi shakliy belgilar orqali aniqlash yetarli emas. Ilmiy-fantastik mazmun turli janr shakllarida namoyon bo'lishi mumkin, uning o'ziga xosligini esa ko'proq voqelikni qurish tamoyili, xayoliy tasavvurning tabiati va ilmiy tafakkur bilan badiiy tasavvur o'rtasidagi munosabat belgilaydi. Muallifning avvalgi tadqiqotida ilmiy-fantastikaning janr chegaralari tahlil qilinar ekan, uning bir tomondan o'ziga xos semantik belgilar tizimiga ega badiiy hodisa, ikkinchi tomondan esa turli janr shakllarini birlashtira oladigan kengroq badiiy struktura sifatidagi ikki tomonlama tabiati asoslangan [Obidjonova, 2026: 357]. Ushbu xulosa mazkur maqola uchun ham muhim *metodologik asos* bo'lib xizmat qiladi, chunki ilmiy-fantastik obrazning tabiati ham aynan shu ochiq va harakatchan badiiy tizim doirasida namoyon bo'ladi.

Ilmiy-fantastikaning janr sifatidagi chegaralari qat'iy belgilanmaganligi obraz poetikasini o'rganishga ham bevosita ta'sir qiladi. Agar ilmiy-fantastik matn faqat ma'lum syujet qolipi yoki tasviriy belgilar majmuasi asosida belgilanadigan bo'lsa, undagi obrazlarni ham tayyor kategoriyalar asosida guruhlash mumkin edi. Biroq amaliy badiiy tajriba bunday yondashuvning yetarli emasligini ko'rsatadi. Bir asarda robot faqat texnik qurilma emas, inson tafakkurining chegaralarini sinovdan o'tkazuvchi subyekt bo'lishi mumkin. Begona sayyora vakili insoniyatning o'zini tashqi nigoh orqali ko'rish imkonini beruvchi alterga aylanishi mumkin. Kelajakdagi inson esa oddiy qahramon emas, balki biologik, texnologik yoki ijtimoiy o'zgarishlar natijasida inson tushunchasining o'zini qayta ko'rib chiqishga majbur qiluvchi poetik markaz vazifasini bajarishi mumkin.

Tadqiqot natijalari

Ilmiy-fantastik asarda badiiy modelning dominantligini aniqlash uchun xayoliy tasavvurning matndagi dastlabki ko'rinishi bilan uning syujet yakunidagi funksiyasini qiyoslash muhim. Chunki fantastik unsur asar

boshida bir vazifani bajarib, voqealar rivoji davomida boshqa semantik yukni olishi mumkin. Shu sababli modelni ekspozitsiyadagi biror detal yoki syujetning tashqi shakliga qarab belgilash asarning ichki poetik harakatini to‘liq ochib bermaydi.

G. Uellsning “Vaqt mashinasi” romanida vaqt bilan bog‘liq fantastik tasavvurning funksional o‘zgarishi bunga aniq misol bo‘la oladi. Asarning dastlabki qismida Vaqt mashinasi ilmiy farazni tajribaga aylantiradigan qurilma sifatida ko‘rinadi. Biroq Vaqt sayyohining kelajakdagi insoniyat bilan uchrashuvi qurilmaning texnik mohiyatini ikkinchi darajaga tushiradi. Vaqt bo‘ylab harakat qilish imkoniyati endi tarixiy jarayonning oqibatlarini kuzatish vositasiga aylanadi. Roman qahramonining kelajak haqidagi mulohazasi ushbu o‘zgarishning mazmunini aniqroq aks ettiradi: *“Inson aqlining tushi naqadar qisqa bo‘lganini o‘ylab, qayg‘urdim. U o‘z joniga o‘zi qasd qilgan edi”* [Wells, 1895: 186]. Mazkur fikr Vaqt mashinasining poetik vazifasini texnik ixtiro chegarasidan chiqaradi. Vaqt sayyohi kelajakni ko‘rish orqali taraqqiyotning natijasini baholaydi va “taraqqiyot” tushunchasining o‘zini shubha ostiga qo‘yadi. Demak, romanda vaqtga oid xayoliy tasavvurning asosiy natijasi kelajak manzarasini yaratish emas, tarixiy rivojlanishni teskari nuqtadan baholash imkonini berishdir. G. Uellsning keyingi mulohazalari bu xulosani yanada aniqlashtiradi. Vaqt sayyohi yuqori dunyo aholisining jismoniy qulaylik va xavfsizlikka erishganini ko‘radi, biroq bu holatni inson aqlining yuksalishi sifatida baholamaydi. Aksincha, xavfsizlik va o‘zgarmaslik insonning intellektual moslashuvchanligini susaytirgan. Romanning poetik mantiqida shu tariqa taraqqiyotning tashqi belgisi bilan insonning haqiqiy rivoji o‘rtasida tafovut paydo bo‘ladi. Vaqtning uzoq masofasi ana shu tafovutni ko‘rish imkonini beradi. Bu usulning muhim jihati shundaki, muallif kelajakni hozirgi zamondan uzilgan mustaqil dunyo sifatida yaratmaydi. Kelajakdagi ijtimoiy tuzilma hozirgi jamiyatdagi munosabatlarning uzoq davom etgan oqibati sifatida o‘qiladi. Eloylar va Morloklar o‘rtasidagi farq shu sababli faqat fantastik biologik o‘zgarish emas. U mehnat, mulk, ijtimoiy tabaqalanish va yashash sharoitining uzoq muddatli natijalarini badiiy shaklga keltiradi. Vaqt bu munosabatlarni yuzaga keltiruvchi sabab emas, ularning natijasini ko‘rsatishga imkon beruvchi poetik masofadir.

M. Shellining “Frankenshteyn yoki zamonaviy Prometey” romanida esa fantastik tajribaning poetik yo‘nalishi vaqt o‘tishi bilan emas, yaratuvchi va yaratilgan mavjudlik o‘rtasidagi munosabatning o‘zgarishi bilan belgilanadi. Viktorning tajribasi natijasida yuzaga kelgan mavjudlik dastlab tajriba mahsuli sifatida ko‘riladi. Biroq uning nutqi va xatti-harakatlari rivojlangan sari “yaratilgan narsa” maqomi yetarli bo‘lmay qoladi. U o‘z qilmishlarining sababini tushuntirishga urinadigan mustaqil subyektga

aylanadi. Buni mavjudlikning Viktor oldidagi murojaatidan ko‘rish mumkin: “*Men baxtsizligim sababli yovuzman. Axir butun insoniyat meni rad etib, yomon ko‘rmayaptimi? Sen, mening yaratuvchim, meni parchalab tashlamoqchi bo‘lasan”* [Shelley, 1818: 143]. Iqtibosdagi sababiy bog‘lanish romanning konflikt tuzilishida muhim o‘zgarish yasaydi. “Yovuzlik” bu mavjudlikning tug‘ma xususiyati sifatida emas, uning ijtimoiy va shaxsiy tajribasi bilan izohlanadi. Shuning uchun roman konfliktini faqat “inson va maxluq” qarama-qarshiligi sifatida talqin qilish yetarli emas. Muallif yaratish aktidan keyingi munosabatni markazga olib chiqadi: yaratuvchi o‘z tajribasining natijasiga qanday munosabatda bo‘ladi va yaratilgan mavjudlikning jamiyatdan chetlatilishi uning xatti-harakatlariga qanday ta’sir qiladi? K.Shellining romanida aynan shu jarayon badiiy modelning ichki dinamikasini belgilaydi. Ilmiy tajriba syujetni boshlab beradi, biroq keyingi voqealarni tajribaning o‘zi emas, uning oqibatlari harakatga keltiradi. Viktorning yaratilgan mavjudlikdan voz kechishi, mavjudlikning yolg‘izligi, jamiyat bilan munosabati va qasosga intilishi bir-biriga ulanib, tajribaning axloqiy oqibatlarini yuzaga chiqaradi. Xayoliy tasavvurning badiiy ahamiyati ham shu jarayonda ochiladi.

Ikki asarni qiyoslashda muhim metodologik farq ko‘rinadi. G. Uells xayoliy tasavvurni tarixiy masofani kengaytirish uchun ishlatsa, M. Shelli uni sabab va oqibat o‘rtasidagi axloqiy masofani qisqartirish uchun ishlatadi. “Vaqt mashinasi”da qahramon kelajakni kuzatib, bugungi ijtimoiy munosabatlarni boshqa tarixiy sharoitda ko‘radi. “Frankenshteyn”da esa yaratuvchi o‘z harakatining bevosita oqibati bilan yuzma-yuz qoladi. Birida masofa tahlil qilish imkonini beradi, ikkinchisida bevosita to‘qnashuv javobgarlikni yuzaga chiqaradi.

Shu qiyoslash badiiy modelning dominantligini aniqlashda yangi mezonni taklif etadi: *xayoliy tasavvurning qaysi vaqt yoki makonda joylashgani emas, u asardagi sabab va oqibat munosabatlarini qanday qayta tashkil etishi* muhim. Agar fantastik hodisa mavjud voqealar o‘rtasidagi sababiy aloqalarni o‘zgartirsa, uning poetik funksiyasi syujet detalidan ancha yuqori darajaga ko‘tariladi. Bu mezon boshqa ilmiy-fantastik asarlarni tahlil qilishda ham qo‘l keladi. Masalan, texnologik yangilikning o‘zi texnologik modelning dominantligini avtomatik ravishda anglatmaydi. Agar texnologiya faqat qahramonning ichki o‘zgarishini yuzaga chiqaradigan vosita bo‘lsa, uning poetik funksiyasi boshqa qatlamga bo‘ysunadi. Aksincha, texnologik tizim qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlar, makonning tashkil topishi, vaqtning kechishi va konfliktning rivojini belgilab bersa, u asarning yetakchi tashkil qiluvchi omiliga aylanadi.


Xuddi shu farq ijtimoiy modelni aniqlashda ham muhim. Distopik yoki utopik muhitning mavjudligi o‘z-o‘zidan ijtimoiy model ustunligini isbotlamaydi. Asarda yangi jamiyatning qanday tuzilgani tasvirlanishi mumkin, biroq syujetning asosiy harakati alohida qahramonning ruhiy o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lsa, jamiyat tasviri boshqa poetik markazga xizmat qilishi mumkin. Ijtimoiy model dominant bo‘lishi uchun jamiyatning tashkil etilish tamoyili asardagi boshqa munosabatlarni ham belgilashi kerak. Buni J. Oruellning “1984” romaniga tatbiq etganda kuzatuvning o‘zi bilan kuzatuv natijasida shakllangan ijtimoiy tartibni farqlash zarur. Teleekran, axborot nazorati, tarixni qayta yozish va tilni o‘zgartirish alohida motivlar sifatida emas, yagona hokimiyat mexanizmining turli ko‘rinishlari sifatida birlashadi. Ularning har biri Uinstonning shaxsiy hayotiga ta’sir qiladi, biroq mazkur ta’sirlar bitta tizimga, davlatning inson xotirasi va haqiqat haqidagi tasavvurlarni nazorat qilishiga bo‘ysunadi. Shu sababli roman poetikasida alohida texnologik vositalardan ko‘ra, ularni birlashtirgan ijtimoiy mexanizm ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O. Haksli “Ajib yangi dunyo” romanida bu mexanizm boshqa shaklda quriladi. Jamiyat insonni tug‘ilishidan boshlab ijtimoiy vazifasiga moslashtiradi. Bunda biologik texnologiya va psixologik shartlantirish ikki mustaqil fantastik unsur emas, yagona ijtimoiy tizimning o‘zaro bog‘langan qismlaridir. Shu sababli asarni faqat texnologik taraqqiyot haqidagi roman sifatida talqin qilish uning asosiy poetik qurilishini toraytiradi. Texnologiya jamiyatning ichki tartibini ishlab chiqarish vositasiga aylanganligi sababli uning badiiy funksiyasi ijtimoiy munosabatlar doirasida namoyon bo‘ladi. Bu holat ilmiy-fantastik asarlarning qiyosiy tahlilida muhim xulosaga olib keladi: *modelni fantastik unsur emas, unsurlar o‘rtasidagi funksional bog‘lanish belgilaydi.* Bir asarda robot asosiy obraz bo‘lishi mumkin, ammo asarning poetik markazi ijtimoiy nazorat bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Boshqa asarda butun bir kelajak jamiyati tasvirlanadi, biroq uning barcha unsurlari insonning biologik yoki ruhiy tabiatini tekshirishga xizmat qilishi mumkin. Demak, tasnif tashqi belgiga emas, matn ichidagi funksional iyerarxiyaga asoslanishi kerak. Shu asosda ilmiy-fantastik asardagi dominant modelni aniqlashning uchta amaliy belgisi ko‘rinadi. Birinchisi, xayoliy tasavvurning qaysi hodisani o‘zgartirishi. Ikkinchisi, mazkur o‘zgarishning qaysi poetik qatlamlarda takroriy oqibat hosil qilishi. Uchinchisi, boshqa poetik unsurlar aynan shu o‘zgarishni izohlashga xizmat qiladimi yoki yo‘qmi. Agar xayoliy tasavvur syujet, qahramonlar munosabati, makon, vaqt va konfliktning rivojini bir yo‘nalishda boshqarsa, uning asosida turgan model dominant hisoblanishi mumkin. Bu mezonning afzalligi shundaki, u ilmiy-fantastik asarlarni qat’iy va o‘zgarmas guruhlarga ajratmaydi. Bir matn davomida dominantlikning funksional markazi o‘zgarishi ham mumkin. Masalan, texnologik tajriba

syujetni boshlashi, uning oqibati esa keyinchalik ijtimoiy munosabatlarni o‘zgartirishi mumkin. Bunday vaziyatda texnologiya va jamiyatni ikki alohida model sifatida sanab chiqishdan ko‘ra, ular o‘rtasidagi sababiy zanjirni aniqlash muhimroqdir. Ayniqsa, ilmiy-fantastik asarning yakuniy qismi modelning asl dominantligini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Chunki xayoliy tasavvurning dastlabki vazifasi ko‘pincha ekspozitsion bo‘ladi, uning haqiqiy semantik natijasi esa konflikt rivojidan keyin ayonlashadi. “Vaqt mashinasi”da vaqt sayohatining ma’nosi kelajakni ko‘rish bilan emas, insoniyat taraqqiyotining oqibatini baholash bilan yakunlanadi. “Frankenshteyn”da ilmiy tajribaning mohiyati mavjudlikni yaratishdan ko‘ra, yaratuvchi va yaratilgan mavjudlik o‘rtasidagi javobgarlik munosabatida ochiladi. Demak, ilmiy-fantastik badiiy modelni aniqlashda asarning boshlang‘ich farazini emas, *uning yakuniy poetik natijasini* ham hisobga olish zarur. Xayoliy tasavvurning matn davomida qanday ma’no orttirishi, qaysi konfliktlarni birlashtirishi va qaysi munosabatlarni qayta tashkil etishi modelning dominantlik darajasini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan badiiy model statik tasnif birligi emas, asar davomida shakllanib boradigan funksional munosabatlar tizimidir. Ushbu kuzatuvlar ilmiy-fantastik obrazlar poetikasini badiiy voqelik modellari bilan bog‘lashning asosiy ilmiy natijasini ham belgilaydi. Obrazni alohida tasniflash asarning qaysi mavjudlik shakllariga tayanishini ko‘rsatadi, modelning dominantligini aniqlash esa ana shu mavjudlik shakllari qanday badiiy tizimga birlashtirilganini ochadi. Shu sababli keyingi qiyosiy tahlilda alohida obrazlarning tavsifidan ko‘ra, ularning *asar voqeligi ichidagi funksional iyerarxiyasi* asosiy tahlil mezoni sifatida olinishi lozim. Taklif etilgan tasnifning nazariy asoslari obraz va badiiy model o‘rtasidagi munosabatni bir yo‘nalishli emas, o‘zaro ta’sirga asoslangan tizim sifatida ko‘rish imkonini beradi. Xayoliy tasavvurning badiiy voqelikni shakllantirish jarayonidagi o‘rni, obrazlar tizimi va modelning o‘zaro aloqasi hamda ularning yakuniy poetik natijaga olib kelish mexanizmini quyidagi chizma orqali umumlashtirish mumkin:

1-rasm

Ilmiy-fastastik asarlarda obraz va badiiy modelning o‘zaro munosabati (muallif ishlanmasi)



Chizmadan ko‘rinadiki, ilmiy-fantastik asarda xayoliy tasavvur alohida hodisa sifatida qolmay, obrazlar tizimi va badiiy modelning shakllanishiga turtki beradi. Biroq ular o‘rtasidagi aloqa mexanik xarakterga ega emas. Obrazlarning semantik imkoniyatlari modelning mazmuniy yo‘nalishini konkretlashtirsa, model obrazlarning asar ichidagi funksional o‘rnini belgilaydi. Natijada turli tabiatdagi obrazlar yagona badiiy voqelik doirasida birlashadi. Mazkur jarayon xayoliy tasavvurning asar poetikasidagi harakatini ham belgilaydi. Farazning badiiy qiymati uning g‘ayrioddiyligida emas, balki syujet rivoji davomida yangi ma’no va funksiyalarni yuzaga keltirish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy-fantastik asarning badiiy tabiati ko‘pincha uning boshlanish nuqtasida paydo bo‘lgan xayoliy tasavvurning keyingi voqealar rivojida qanday o‘zgarishiga bog‘liq. Farazning o‘zi hali badiiy konsepsiya emas. U syujet harakatiga kirganidan keyingina obrazlar munosabati, konflikt tabiati, makon va zamon tasavvuri hamda qahramonning voqelikka munosabatini o‘zgartira boshlaydi. Shu sababli ilmiy-fantastik poetikani o‘rganishda fantastik unsur qaysi shaklda mavjudligi bilan bir qatorda, uning syujet davomida qanday funksional yo‘lni bosib o‘tishini ham kuzatish lozim.

O‘zbek ilmiy fantastikasida bu jarayonning turli ko‘rinishlarini uchratish mumkin. H. Shayxov ijodida xayoliy tasavvur ko‘pincha dastlab sirli hodisa sifatida namoyon bo‘lib, keyinchalik inson va jamiyatga daxldor

muammoga aylanadi. Adibning “Rene jumbog‘i”, “Zalvorli odamlar”, “Yettinchi operatsiya”, “G‘aroyib ko‘lanka”, “Olmos jilosi”, “Ajdodlar xotirasi”, “Telba dunyo”, “Tutash olamlar”, “Ikki jahon ovorasi” kabi asarlari ana shu poetik imkoniyatning turli shakllarini namoyon etadi. H. Shayxovning fantastik asarlarida voqealar Yer bilan chegaralanib qolmasligi, koinot va boshqa sayyoralarga ko‘chishi, robotlar, o‘zga sayyoraliklar va boshqa g‘ayrioddiy mavjudliklarning ishtirok etishi qayd etilgan. “Sirli nur” hikoyasida xayoliy tasavvurning syujetdagi harakatini shu nuqtadan kuzatish mumkin. Hikoya noma’lum kosmik hodisa bilan boshlanadi. Dastlab ilmiy kuzatuv obyekti sifatida qabul qilingan hodisa asta-sekin oddiy ilmiy jumboq doirasidan chiqadi. Qahramonlar noma’lum signalning manbasini aniqlashga intilar ekan, izlanishning yo‘nalishi ham o‘zgarib boradi. Endi masala faqat noma’lum hodisaning mohiyatini bilish emas, uning ortida turgan mavjudlik va bu mavjudlikning insoniyat bilan munosabati haqida o‘ylashga ko‘chadi [Shayxov, 2001]. Bu o‘zgarish syujetning ichki dinamikasini belgilaydi. Xayoliy tasavvur avval savolni tug‘diradi, keyin izlanishni harakatga keltiradi, undan so‘ng qahramonlar qarshisida yangi axloqiy va mavjudlik muammosini yuzaga chiqaradi. Demak, ilmiy-fantastik asarda xayoliy tasavvurning vazifasi voqeani g‘ayrioddiylashtirish bilan tugamaydi. U syujetning keyingi bosqichlarida o‘z semantik ko‘lamini kengaytiradi. Shu jihatdan xayoliy tasavvurni statik unsur emas, dinamik badiiy ifoda usuli sifatida baholash mumkin. O‘zbek ilmiy fantastikasidagi kuzatuvlarni ingliz adabiyoti materiallari bilan parallel ko‘rib chiqish xayoliy tasavvurning turli poetik imkoniyatlarini yanada aniqroq ko‘rsatadi. Turli adabiy muhitlarda bir-biriga yaqin ilmiy yoki texnologik farazlar turlicha badiiy natijaga olib kelishi mumkin. Bunda farq fantastik unsur tanlanishidagina emas, uning syujet, obraz va voqelik bilan qanday munosabatga kirishishida namoyon bo‘ladi. J. Uindemning “Triffidlar kuni” romanida xayoliy tasavvurning syujetdagi harakati bir necha hodisaning o‘zaro birikishi orqali yuzaga keladi. Asarning dastlabki voqealarida odamlarning osmondagi g‘ayrioddiy hodisani kuzatishi ommaviy ko‘rish qobiliyatining yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan bir vaqtda insoniyat ilgari o‘zi yetishtirib kelgan, biroq xavfli xususiyatlarga ega triffidlar yangi sharoitda faol tahdidga aylanadi. Tadqiqotlarda romanning katastrofik tabiati aynan ushbu hodisalarning bir-birini kuchaytirishi bilan bog‘lanadi [Määttä, 2020]. Romandagi triffid obrazi shu jihatdan alohida e’tiborga loyiq. U oddiy o‘simlik tasviri sifatida qolmaydi. Inson tomonidan o‘rganilgan va undan amaliy maqsadlarda foydalanilgan biologik mavjudlikning keyinchalik insonning o‘ziga xavf tug‘dirishi asarning muhim ziddiyatini yuzaga keltiradi. Triffidlarning badiiy vazifasi ularning g‘ayrioddiy tashqi xususiyatlari bilan

cheklanmaydi. Ular insonning tabiat ustidan nazorat o‘rnatish haqidagi tasavvurini shubha ostiga qo‘yuvchi poetik vositaga aylanadi.

Xayoliy tasavvurning rivojlanishi bilan romandagi muammo ham o‘z ko‘lamini o‘zgartiradi. Dastlab noma’lum va xavfli mavjudlik sifatida qabul qilingan triffidlar keyinchalik insoniyatning yashash shartlarini belgilovchi omillardan biriga aylanadi. Odamlarning ko‘rish qobiliyatidan mahrum bo‘lishi esa mavjud xavfni yanada kuchaytiradi. Shu tariqa syujetning markazi alohida biologik mavjudlikni o‘rganishdan yangi sharoitda insoniyatning yashab qolish masalasiga ko‘chadi. Bu jarayon qahramon obrazining funksiyasida ham aks etadi. Bill Masen dastlab triffidlarni o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi. Voqealar keskinlashgan sari uning bilim va tajribasi shaxsiy kasbiy qiziqish doirasidan chiqib, yashab qolish uchun zarur vositaga aylanadi. Qahramon endi hodisani kuzatuvchi emas, yangi voqelik sharoitida qaror qabul qilishi kerak bo‘lgan faol subyekt sifatida harakat qiladi. Xayoliy tasavvur shu tariqa qahramonning xarakterini tasvirlashdan ko‘ra, uning harakat maydonini o‘zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. J. G. Ballardning “Suv ostida qolgan dunyo” romanida xayoliy tasavvurning poetik harakati boshqa yo‘nalishda kechadi. Global haroratning keskin ko‘tarilishi natijasida Yerning katta qismi suv va tropik o‘simliklar hukmron bo‘lgan hududga aylanadi. Biroq asarning badiiy markazi ekologik falokatning tashqi ko‘rinishini tasvirlash bilan chegaralanmaydi. M. Delville Ballardning katastrofik romanlarini tahlil qilar ekan, tashqi muhitdagi o‘zgarish bilan qahramonlarning ichki holati o‘rtasidagi yaqin aloqaga e’tibor qaratadi [Delville, 1998]. Romandagi o‘zgargan tabiat qahramon uchun oddiy makon emas. Inson yashashiga mos bo‘lgan avvalgi muhitning yo‘qolishi bilan tabiatning o‘zi qahramonning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatuvchi faol poetik omilga aylanadi. Suv bosgan shaharlar, issiq va nam iqlim, o‘rmonlarning tobora kengayishi tashqi voqelikdagi o‘zgarishni bildirishi bilan birga insonning ichki dunyosidagi siljishlarni ham kuchaytiradi. Shu jihatdan tabiatdagi o‘zgarish va insondagi o‘zgarish bir-birini izohlovchi ikki parallel jarayon sifatida quriladi. Doktor Robert Keransning kechinmalari ana shu jarayonni ochib beradi. U atrofidagi makon o‘zgarishini oddiy ekologik hodisa sifatida qabul qilmaydi. Tashqi dunyoning tobora insoniyatga begona bo‘lib borishi uning o‘z hayoti va mavjudligi haqidagi tasavvurlariga ham ta’sir qiladi. Qahramonning ichki kechinmalari kuchaygani sari tashqi makonning o‘zi ham boshqa mazmun kasb etadi. Natijada ekologik falokat inson ruhiyatini tadqiq etish vositasiga aylanadi [Delville, 1998]. J. Uindem va J. G. Ballard asarlaridagi farq aynan xayoliy tasavvurning keyingi poetik harakatida ko‘rinadi. “Triffidlar kuni”da fantastik hodisa tashqi xavfni kuchaytirib, jamiyatni yangi yashash tartibini izlashga majbur qiladi. “Suv

ostida qolgan dunyo”da esa o‘zgargan tashqi muhit insonning ichki dunyosiga tobora chuqurroq kirib boradi. Birinchi holatda xavf ijtimoiy harakatni kuchaytirsa, ikkinchi holatda muhitning o‘zgarishi qahramonning o‘zini anglash jarayonini murakkablashtiradi. D. Lessingning “Kanos Argosidagi arxivlar” turkumida xayoliy tasavvurning ko‘lami yanada kengayadi. Besh romandan iborat mazkur turkumda kosmik makon insoniyat tarixi, jamiyat va inson tajribasini boshqa nuqtayi nazardan ko‘rish imkonini beradi. E. Maslen Lessingning mazkur asarlarida kosmik fantastika orqali insoniyatning tarixiy, ijtimoiy va ma’naviy tajribasi qayta ko‘rib chiqilishini ta’kidlaydi [Maslen, 2014]. Bu turkumda kosmik olamning vazifasi faqat voqea kechadigan uzoq makonni yaratishdan iborat emas. Kosmik masofa insoniyat tarixiga tashqaridan qarash imkonini beradi. Kitobxon odatiy tarixiy tasavvurdan ma’lum darajada uzoqlashib, insoniyat taraqqiyoti, jamiyatning tashkil topishi va insonning o‘z mavjudligi haqidagi savollarni boshqa ko‘lamda ko‘ra boshlaydi. Shu ma’noda fantastik makon asarning mazmunini kengaytiruvchi poetik vosita sifatida ishlaydi. “Shikasta” romanida ham insoniyat tarixi kosmik miqyosdagi jarayonlar bilan bog‘lanadi. Yer sivilizatsiyasining taqdiri boshqa olamlar va uzoq tarixiy jarayonlar fonida ko‘rsatilgani sababli insoniyatning mavjud holati yagona va o‘zgarmas shakl sifatida emas, muayyan tarixiy bosqich sifatida namoyon bo‘ladi. S. Watkins Lessingning spekulyativ asarlarida boshqa olamlarni yaratish orqali insoniyatning o‘z olamini yangicha ko‘rish imkoniyati yuzaga kelishini qayd etadi [Watkins, 2026]. D. Lessing ijodida xayoliy tasavvurning vaqt ko‘lami ham alohida ahamiyat kasb etadi. Insoniyatning bugungi holatini uzoq tarixiy jarayon bilan bog‘lash orqali yozuvchi fantastik voqelikni kelajak haqidagi oddiy taxmin doirasidan chiqaradi. T. Sperlinger va K. Hanson Lessingning spekulyativ ijodida inson evolyutsiyasi hamda uzoq tarixiy jarayonlar muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi [Sperlinger & Hanson, 2017]. Bunda g‘ayrioddiy tasavvur tarixiy tafakkurning ko‘lamini kengaytiruvchi vositaga aylanadi.

O‘zbek va ingliz fantastikasi materiallarini yonma-yon qo‘yish xayolotning poetik harakati turlicha yo‘nalishlarda kechishini ko‘rsatadi. H. Shayxovning “Sirli nur” hikoyasida noma’lum kosmik hodisa asta-sekin insoniyat taqdiri bilan bog‘liq muammoga aylanadi. J. Uindemning “Triffidlar kuni” romanida biologik xavf insoniyatning mavjud ijtimoiy tartibini izdan chiqaradi. J. G. Ballardning “Suv ostida qolgan dunyo” asarida tashqi muhitning o‘zgarishi insonning ichki holatini o‘zgartiradi. D. Lessingning “Kanos Argosidagi arxivlar” turkumida esa kosmik masofa insoniyat tarixiga yangicha nazar tashlash imkonini yaratadi. Bu asarlar o‘rtasidagi umumiylik xayoliy tasavvurning mavjudligi bilan emas, uning badiiy harakatga kirishishi bilan belgilanadi. H. Shayxovda kosmik hodisa

ogohlantiruvchi mazmun kasb etsa, J. Uindemda biologik xavf jamiyatning yashash mexanizmlarini o‘zgartiradi. J. G. Ballardda ekologik o‘zgarish qahramon ruhiyatining ichki jarayonlarini ochishga xizmat qiladi. D. Lessingda esa fantastik olam tarixiy tafakkur ko‘lamini kengaytiradi. Demak, bir xil darajadagi “g‘ayrioddiylik” turli yozuvchilarda turlicha poetik natija berishi mumkin. Bu farq obrazlarning badiiy vazifasida ham ko‘rinadi. H. Shayxovda kosmik hodisa insoniyatning kelajagini anglashga xizmat qiluvchi vositaga aylansa, J. Uindemda o‘simlik obrazi inson va tabiat munosabatining izdan chiqishini ifodalaydi. J. G. Ballardda o‘zgargan tabiat qahramonning ichki dunyosini ochuvchi muhit sifatida faoliyat yuritadi. D. Lessingda esa kosmik mavjudlik va makon insoniyat tarixini boshqa ko‘lamda idrok etishga imkon beradi. Shu sababli obrazning poetik imkoniyati faqat uning qaysi mavjudlik turiga mansubligi bilan belgilanmaydi. Uning xayoliy tasavvur bilan munosabati va syujetdagi harakati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qiyos fantastik obrazni o‘rganishda dinamik tahlil zarurligini ko‘rsatadi. Obrazning dastlabki semantik belgisi asar davomida saqlanib qolishi mumkin, biroq uning funksiyasi o‘zgaradi. U voqea sababchisi, konfliktni kuchaytiruvchi vosita, qahramonning ichki o‘zgarishini yuzaga chiqaruvchi omil yoki tarixiy jarayonni qayta anglash imkonini beruvchi badiiy vositaga aylanishi mumkin. Bunday o‘zgarishlarni kuzatish ilmiy-fantastik obrazning poetik imkoniyatlarini ancha to‘liq ochishga yordam beradi. Shu asosda xayolotni asar boshida paydo bo‘ladigan g‘ayrioddiy hodisa sifatida chegaralash mumkin emas. Uning badiiy ahamiyati syujet davomida yuzaga keladigan oqibatlar tizimida namoyon bo‘ladi. Faraz qahramonning harakatini o‘zgartiradi, obrazlar o‘rtasidagi munosabatni yangilaydi, mavjud makonning ma’nosini o‘zgartiradi yoki tarixiy va ijtimoiy jarayonlarga boshqa rakursdan qarash imkonini beradi. Aynan shu jihat ilmiy-fantastik asarning poetik harakatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Natijalar muhokamasi

Ilmiy-fantastik adabiyotda obrazning vazifasi faqat qahramon yoki tasvir obyektini yaratish bilan cheklanmaydi. Ayrim hollarda inson obrazi ilmiy tajriba yoki texnologik o‘zgarish natijasida o‘zining odatiy antropologik chegaralaridan chiqadi. Ayrim matnlarda insondan tashqari mavjudot yoki begona sivilizatsiya insonning o‘zini anglash vositasiga aylanadi. Robot, sun’iy intellekt, kibernetik tizim yoki boshqa texnologik obyekt esa mustaqil poetik subyekt darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Yana bir guruh asarlarda buyum yoki texnologik predmetning o‘zi syujet va ma’no hosil qiluvchi markazga aylanadi. Demak, ilmiy-fantastik obrazlarni faqat

“inson”, “robot”, “begona mavjudot” yoki “texnika” kabi tashqi belgilar asosida tasniflash ularning badiiy funksiyasini to‘liq ochib bera olmaydi.

Shu jihatdan ilmiy-fantastik obrazni tasniflashda uning *badiiy voqelikdagi funksional markazi*ni aniqlash muhimdir. Obrazning tabiati uning qanday ko‘rinishda ekanidan ko‘ra, matnda qanday munosabatlar tizimini yuzaga keltirishi bilan belgilanadi. Inson obrazi insonning o‘zligini, xotirasini, axloqiy tanlovini yoki mavjudlik chegaralarini muammoga aylantirsa, u antropotsentrik funksiyani bajaradi. Insondan farqli mavjudlik shakli insonning o‘zini anglashiga xizmat qilsa, alterlik funksiyasi yuzaga keladi. Texnologik obyekt yoki sun’iy intellekt inson va texnika munosabatlarini tashkil etsa, texnogen funksionallik ustuvor bo‘ladi. Muayyan buyum yoki moddiy obyekt mustaqil ma’no markaziga aylansa, reifikatsion xususiyat yuzaga chiqadi. Bunday tasnif ilmiy-fantastik obrazning mazmunini yanada aniqroq tushuntirish imkonini beradi. Chunki bir obraz bir vaqtning o‘zida bir necha semantik qatlamga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, sun’iy intellekt texnologik hodisa sifatida texnogen obraz bo‘lsa, u o‘zini inson sifatida anglashga intilgan taqdirda antropologik muammoning ham tashuvchisiga aylanadi. Xuddi shuningdek, begona mavjudot alter obraz sifatida namoyon bo‘lishi bilan birga, u bilan uchrashuv yangi makon va vaqt munosabatlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun tasnifda asosiy mezon obrazning barcha xususiyatlarini inkor etish emas, balki uning qaysi funksiyasi badiiy tizimda dominant ekanini aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Ilmiy-fantastik obrazning badiiy tizimdagi mavqeyi uni alohida holda emas, boshqa obrazlar, voqealar va badiiy detallar bilan hosil qiladigan munosabatlari orqali yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, inson va inson bo‘lmagan mavjudlik shakllari o‘rtasidagi chegara masalasi obrazning poetik funksiyasini kengaytiradi. Ilmiy-fantastik asarda “boshqa” mavjudlikning paydo bo‘lishi ko‘pincha qahramonning tashqi muhit bilan munosabatini emas, uning o‘zligini anglash jarayonini o‘zgartiradi. Shu sababli alter obrazni faqat begona mavjudot obrazi sifatida tushunish uning poetik imkoniyatlarini toraytiradi. Uning asosiy vazifasi ko‘pincha inson haqidagi mavjud tasavvurni shubha ostiga qo‘yishdan iborat.

C. D. Malmgren ilmiy-fantastikadagi “self” va “other” munosabatlarini tahlil qilar ekan, begona mavjudot bilan uchrashuv aslida insonning o‘zini belgilash mexanizmlarini ham namoyon qilishini ko‘rsatadi [Malmgren, 1993: 15–33]. Bu jihat ilmiy-fantastik obrazning o‘ziga xosligini belgilovchi muhim omillardan biridir. “Boshqa” mavjudot qanchalik g‘ayrioddiy tasvirlanmasin, uning badiiy vazifasi inson tajribasiga qaytish bilan yakunlanadi. Begona sayyora aholisi, sun’iy ong, genetik jihatdan o‘zgargan mavjudlik yoki kelajak insoni kitobxon uchun mutlaqo yangi

hodisa sifatida kiritiladi, biroq ular orqali berilayotgan savol odatda insonning o‘zi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda alter obraz ilmiy-fantastik tafakkurning o‘ziga xos ko‘zgusidir.

R. Bredberining “Mars solnomalari” asarida Mars va marsliklar bilan bog‘liq tasvirlar aynan shunday ikki tomonlama poetik vazifani bajaradi. Marsning begona makon sifatida tasvirlanishi Yerliklarning o‘zlari bilan olib kelgan qadriyatlarini ham sinovdan o‘tkazadi. Sayyoraga tashqi kuzatuvchi sifatida kirib kelgan inson asta-sekin o‘zi tasavvur qilgan “begonalik”ning tashuvchisiga aylanadi. Natijada Mars haqidagi fantastik tasvir insonning boshqa makonni egallashi, o‘z madaniy tajribasini unga ko‘chirishga urinishi va o‘zga mavjudlikni o‘z mezonlari asosida baholashi kabi masalalarni ochib beradi. Asarning fantastik geografiyasi shu sababli oddiy dekorativ makon emas, inson tabiatini ochuvchi poetik vositaga aylanadi. Bunday holatda xronotopning o‘zi ham obrazning semantik imkoniyatlarini kengaytiradi. Mars Yerga qarama-qarshi qo‘yilgan makon bo‘lish bilan birga, insoniyatning o‘z tarixiga tashqaridan qarash imkonini beradigan badiiy masofani hosil qiladi. Ilmiy-fantastik asarda boshqa sayyora yoki kelajak shahri kitobxonni real hayotdan uzoqlashtirish uchun emas, real tajribani qayta ko‘rish uchun xizmat qiladi. Begona makon tanish muammolarni yangicha shaklda ko‘rsatadi. Shu jihatdan xronotopik va alter poetikasi o‘zaro kesishadi: makonning begonaligi mavjudlikning begonaligini kuchaytiradi, mavjudlikning begonaligi esa inson yashayotgan makon haqidagi tasavvurni o‘zgartiradi.

Texnogen obrazning poetik tabiatida ham shunga o‘xshash murakkablik mavjud. Robot, sun’iy intellekt yoki boshqa texnik mavjudlik ilmiy-fantastik asarda insonning qarama-qarshisi sifatida emas, ba’zan uning davomchisi, ba’zan esa uning yaratgan va keyinchalik nazorat qila olmay qolgan mahsuli sifatida tasvirlanadi. Shu sababli texnogen obrazni faqat “inson o‘rnini egallayotgan mashina” modeli bilan izohlash yetarli emas. Uning badiiy qiymati inson tomonidan yaratilgan narsaning qachon va qanday qilib mustaqil subyektga aylanishi masalasida namoyon bo‘ladi. A. Azimov ijodida robotning bunday funksional o‘zgarishi izchil kuzatiladi. “Men – Robot” romanidagi robotlar dastlab inson yaratgan texnik mavjudlik sifatida ko‘rinsa-da, syujet davomida ularning harakatlari insonning axloqiy qarorlarini sinovdan o‘tkazuvchi omilga aylanadi. Robotning “xato qilmasligi”ning o‘zi muammo emas, muammo insonning robot faoliyatini qanday tushunishi va boshqarishidadir. Robotning xatti-harakatlarini izohlash uchun yaratilgan mantiqiy qoidalar oxir-oqibat inson tafakkurining o‘ziga doir savollarni yuzaga chiqaradi. Shu sababli Azimovda texnogen obraz texnik imkoniyatni namoyish etishdan ko‘ra,

inson aqli, mas’uliyati va axloqiy tanlovining chegaralarini tekshiruvchi badiiy ifoda usuli sifatida faoliyat ko‘rsatadi [Azimov, 1950].

Hozirgi davr ilmiy-fantastikasida bu masala yanada murakkablashgan. Sun’iy intellektning inson qiyofasiga taqlid qilishi yoki odamga xizmat qilishi bilan cheklanmay, qaror qabul qilish, ma’lumotlarni tahlil qilish, ijtimoiy tizimlarni boshqarish kabi funksiyalarni bajarishi texnogen obrazning semantik ko‘lamini kengaytiradi. H. Osava va hammualliflarining ilmiy-fantastikadagi sun’iy intellekt va robot tasvirlariga bag‘ishlangan tadqiqotida bunday obrazlarning insoniy qiyofadagi personajlardan tortib, aqlli mashinalar, yordamchi qurilmalar va infratuzilmaviy tizimlargacha bo‘lgan ko‘rinishlari ajratiladi [Osawa et al., 2022: 2123–2133]. Bu tasnif texnogen obrazning tashqi shakllari xilma-xilligini ko‘rsatadi. Badiiy tahlil uchun esa bundan ham muhim masala uning syujetdagi faolligi va inson bilan munosabatida qanday semantik siljish hosil qilishidir. N. K. Haylesning posthumanizmga oid tadqiqotlarida inson va texnologiya o‘rtasidagi chegara masalasining tobora murakkablashib borishi alohida e’tibor bilan tahlil qilinadi [Hayles, 1999: 2]. Ilmiy-fantastik adabiyot aynan shu murakkab chegarani badiiy tajribadan o‘tkazish uchun keng imkoniyat beradi. Tana va texnologiyaning birikishi, xotiraning raqamlashtirilishi, ongning boshqa tashuvchiga ko‘chirilishi yoki sun’iy mavjudlikning shaxsiy xususiyatlarga ega bo‘lishi natijasida “inson” tushunchasining o‘zi barqaror kategoriya sifatida qolmaydi. Texnogen obraz shu nuqtada antropologik mazmun kasb etadi. Uning poetik funksiyasi mashinaning imkoniyatlarini ko‘rsatish bilan tugamaydi, balki insoniylikni belgilovchi mezonlarni qayta ko‘rib chiqishga olib keladi.

Z. Dingning “Men – Robot”ga posthumanistik yondashuvi ham A. Azimov yaratgan robot obrazlarini inson va mashina o‘rtasidagi oddiy qarama-qarshilikdan ko‘ra murakkabroq munosabatlar tizimida talqin qilish imkonini beradi [Ding, 2024: 194–203]. S. H. Hvang esa robot obrazlari orqali inson, texnologiya va posthuman mavjudlik masalalarining bir-biriga tutashishini ko‘rsatadi [Hwang, 2023: 61–88]. Bu tadqiqotlar ilmiy-fantastik texnogen obrazni mustaqil poetik birlik sifatida o‘rganish bilan birga, uning antropologik mazmunini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Reifikatsion obrazlarning badiiy funksiyasi esa predmetning passiv mavjudligidan ancha kengroqdir. Ilmiy-fantastik asarda qurilma, kapsula, laboratoriya, kosmik kema, xotira tashuvchisi yoki boshqa moddiy obyekt syujet harakatining markaziga chiqarilganda u muayyan munosabatlar tizimini o‘zida mujassamlashtiradi. Predmetning shakli, ishlash prinsipi yoki moddiy xususiyati voqeani harakatga keltirishi mumkin, biroq uning

badiiy mazmuni aynan shu funksional vazifadan kengayadi. Predmet insonning xotirasi, qo‘rquvi, hokimiyatga munosabati yoki noma’lumlik bilan to‘qnashuvini ifodalovchi vositaga aylanishi mumkin. Bunday obrazlar ilmiy-fantastik adabiyotning “narsa”ga bo‘lgan munosabatini ham o‘zgartiradi. Realistik matnda predmet ko‘pincha muhitni konkretlashtiruvchi detal vazifasini bajarsa, ilmiy-fantastik matnda u hali mavjud bo‘lmagan imkoniyatning moddiy shakliga aylanishi mumkin. Ayniqsa, ilmiy ixtiro bilan bog‘liq predmetlarda uning moddiyligi va konseptualligi bir-biridan ajralmaydi. Muayyan qurilma qanday ishlashi haqidagi savol bilan bir qatorda, undan foydalanish natijasida inson hayoti qanday o‘zgarishi haqidagi savol ham paydo bo‘ladi. Shu sababli reifikatsion obraz texnologik model bilan tutashgan holda antropologik yoki ijtimoiy ma’noga ega bo‘lishi mumkin.

Ilmiy-fantastik asarda predmetning semantik faolligi ko‘pincha uning qahramon bilan munosabatida ochiladi. Qahramon biror qurilmani boshqaradi, undan foydalanadi yoki uning ta’siriga tushadi. Biroq munosabat bir tomonlama bo‘lmasligi mumkin. Predmet qahramonning qarorini o‘zgartiradi, uning imkoniyatlarini cheklaydi yoki aksincha kengaytiradi. Shu tariqa predmet badiiy voqelikning faol komponentiga aylanadi. Reifikatsion obrazning o‘ziga xosligi ham shunda: narsa faqat tasvirlanmaydi, u voqelikning ma’nosini tashkil etishda ishtirok etadi.

Obrazlar o‘rtasidagi bunday funksional aloqalar badiiy voqelikning yaxlitligini ta’minlaydi. Antropotsentrik obraz texnogen obraz bilan to‘qnashganda inson va texnologiya munosabati yuzaga keladi; alter obrazning paydo bo‘lishi inson va “*boshqa*” mavjudlik o‘rtasidagi chegarani faollashtiradi; reifikatsion obraz esa shu munosabatlarning moddiy shaklini yaratadi. Birgina obrazning poetik xususiyatini aniqlash bilan asarning mazmuniy tizimi to‘liq ochilmaydi. Uning boshqa obrazlar bilan qanday semantik zanjir hosil qilayotgani ham hisobga olinishi kerak. Shu jihatdan ilmiy-fantastik obrazlar poetikasida qarama-qarshilik tamoyili alohida ahamiyatga ega. Inson va mashina, inson va begona mavjudlik, tabiiy va sun’iy, real va virtual, hozirgi va kelajak kabi juftliklar ko‘pincha asarning ichki harakatini belgilaydi. Biroq bu qarama-qarshiliklar mutlaq bo‘lishi shart emas. Zamonaviy ilmiy-fantastikada ularning chegaralari tobora xiralashadi. Inson texnologik jihatdan o‘zgaradi, mashina insoniy xususiyatlarni egallaydi, begona mavjudlik inson tajribasiga yaqinlashadi, predmet esa mustaqil semantik subyekt darajasiga ko‘tariladi. Natijada obrazlar o‘rtasidagi chegara ham o‘zgaruvchan poetik kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy-fantastik obrazning evolyutsiyasini aynan shu o‘zgaruvchanlik orqali kuzatish mumkin. Dastlab texnologik taraqqiyotning timsoli sifatida

ko‘ringan mashina keyinchalik insonning raqibi yoki hamkori, undan keyin esa insonning o‘zligini belgilash vositasiga aylanishi mumkin. Xuddi shuningdek, begona mavjudot avval xavf manbayi sifatida tasvirlansa, keyingi bosqichlarda insonning o‘ziga oid muammolarni ochib beruvchi alterga aylanishi ehtimol. Obrazning tarixiy o‘zgarishi uning tashqi shakli bilan emas, badiiy tizimdagi funksiyasining almashishi bilan bog‘liq. Bu jarayon ilmiy-fantastik adabiyotning boshqa janr shakllari bilan munosabatini ham aniqlashga yordam beradi. Fantastik unsur turli janriy shakllarda mavjud bo‘lishi mumkin, biroq ilmiy-fantastik tafakkurda u ko‘pincha sababiy, ilmiy yoki ehtimoliy izohga ega bo‘lgan faraz bilan bog‘lanadi. Shu bois obrazning noodatiyligi o‘z-o‘zicha janriy mezon bo‘la olmaydi. Muhimi, fantastik obraz qanday bilish jarayonini yuzaga keltiradi, qaysi muammoni konseptuallashtiradi va badiiy voqelikning qaysi qatlamlarini o‘zaro bog‘laydi. Shu nuqtadan qaralganda, ilmiy-fantastik obrazning poetik qiymati uning “fantastik” ekanida emas, balki badiiy fikrni qaysi yo‘nalishga burishida namoyon bo‘ladi. Antropotsentrik obraz inson tajribasini chuqurlashtiradi, alter obraz o‘zlikni begona orqali ko‘rsatadi, texnogen obraz inson yaratgan texnologik mavjudlikning mustaqillashuvini badiiy muammoga aylantiradi, reifikatsion obraz esa predmet va moddiy muhitning semantik faolligini kuchaytiradi. Ularning o‘zaro munosabati natijasida ilmiy-fantastik matnning badiiy voqeligi bir qatlamli tasvirdan murakkab konseptual tizimga aylanadi. Mazkur poetik tizimning keyingi muhim jihati obrazlar faoliyat ko‘rsatadigan makon va zamonning xarakteridir. Ilmiy-fantastik makon ko‘pincha mavjud geografik makondan farqli bo‘lsa-da, uning vazifasi shunchaki yangilik yaratish bilan cheklanmaydi. Kosmos, boshqa sayyora, kelajak shahri, yerosti majmuasi yoki virtual makon qahramonning mavjudlik shartlarini o‘zgartiradi. Xronotopning o‘zgarishi natijasida obrazning harakat doirasi, bilish imkoniyati va boshqa mavjudliklar bilan aloqasi ham yangilanadi. Demak, makon va zamon obraz poetikasining tashqi sharti emas, uning ma’nosini belgilovchi faol omillardan biridir.

Ilmiy-fantastikada kelajakning badiiy tasviri ayniqsa shu jihatdan qiziq. Kelajak hali yuz bermaganligi sababli u tayyor voqelik sifatida emas, ehtimoliy voqelik sifatida quriladi. Muallif mavjud ilmiy yoki ijtimoiy tendensiyani ma’lum nuqtaga qadar rivojlantirib, uning mumkin bo‘lgan natijasini tasvirlaydi. Shu sababli kelajak obrazi bir vaqtning o‘zida ikki zamonni, mavjud hozirgi holat va uning ehtimoliy davomiyligini birlashtiradi. Kelajakning badiiy qimmati ham aynan shu ikki qatlamning o‘zaro munosabatida yuzaga keladi.

Badiiy vaqtning bunday xususiyati ilmiy-fantastik asarda tarixiy xotira masalasini ham kuchaytiradi. Kelajak haqida hikoya qilayotgan qahramon

ko‘pincha o‘tmish bilan uzilgan yoki o‘tmishni qayta talqin qiladigan muhitda yashaydi. Texnologik taraqqiyot natijasida xotiraning saqlanishi, o‘chirilishi yoki o‘zgartirilishi mumkinligi vaqtni faqat xronologik kategoriya sifatida emas, shaxsiy va ijtimoiy tajribaning tarkibiy qismi sifatida namoyon qiladi. Natijada vaqt masalasi antropologik muammoga, ayrim hollarda esa ijtimoiy muammoga aylanadi. Demak, ilmiy-fantastik obrazlar poetikasini tahlil qilishda obrazning tashqi ko‘rinishi bilan uning badiiy vazifasi o‘rtasidagi farqni saqlash zarur. Xuddi shuningdek, makon, zamon, texnologiya, inson va jamiyatning asarda mavjudligi ularni avtomatik ravishda alohida modelning belgisi sifatida qabul qilish uchun yetarli emas. Ularning badiiy tizimdagi o‘zaro munosabati, syujet va konfliktni tashkil etishdagi roli, muallif ilgari surayotgan asosiy savol bilan aloqasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ilmiy-fantastik badiiy voqelik aynan shu funksional munosabatlar orqali yaxlitlik kasb etadi.

Xulosa

Ilmiy-fantastik asarda obraz va badiiy voqelik munosabati an’anaviy obraz nazariyasining umumiy mezonlari bilan to‘liq izohlanmaydi. Chunki mazkur turdagi asarlarda badiiy borliq real tajriba doirasidan tashqariga chiqadigan tasavvur asosida quriladi va uning tarkibidagi obrazlar shu farazning poetik imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi faol unsurlarga aylanadi. Tadqiqot davomida olib borilgan kuzatishlar ilmiy-fantastik obrazning o‘ziga xosligi uning g‘ayrioddiyligida emas, balki g‘ayrioddiy mavjudlikning asar ichidagi funksional harakati, boshqa obrazlar bilan aloqasi hamda badiiy voqelikni tashkil etishdagi ishtirokida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Ilmiy-fantastik obrazlarni funksional-poetik jihatdan antropotsentrik, alter, texnogen va reifikatsion turlarga ajratish obrazning faqat tashqi ko‘rinishi yoki mavjudlik tabiatini emas, uning badiiy tizimdagi vazifasini aniqlash imkonini beradi. Mazkur tasnifning asosiy ilmiy ahamiyati obrazni statik birlik sifatida emas, asar poetikasida muayyan vazifani bajaruvchi dinamik hodisa sifatida ko‘rishga sharoit yaratishidadir. Bir obraz syujetning dastlabki bosqichida bir vazifani bajarsa, voqealar rivoji davomida uning semantik yuklamasi o‘zgarishi, kengayishi yoki boshqa mazmuniy qatlam bilan birlashishi mumkin. Shu bois obrazning poetik tabiatini belgilashda uning boshlang‘ich xususiyatlari bilan bir qatorda syujet davomida qanday funksional o‘zgarishga uchrashi ham hisobga olinishi lozim. Tadqiqotda badiiy modelning xronotopik, texnologik, antropologik va ijtimoiy ko‘rinishlarini obrazlar tizimi bilan bog‘liq holda tahlil qilish ilmiy-fantastik asarning ichki qurilishini yanada aniqroq ko‘rsatdi. Badiiy model obrazlar majmuasining oddiy yig‘indisi emas, balki ularning o‘zaro munosabatini belgilovchi konseptual asosdir. Shu bilan birga, obraz ham

modelning tayyor mazmunini shunchaki ifodalab bermaydi. U modelning mazmunini konkretlashtiradi, unga hissiy-estetik mazmun beradi va syujet harakati orqali uning badiiy imkoniyatlarini ochadi. Demak, obraz va model o‘rtasidagi munosabat o‘zaro ta’sirga asoslangan poetik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy-fantastik asarning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi muhim omillardan biri xayoliy tasavvurning syujetdagi harakatidir. Faraz asarga bir martalik g‘ayrioddiy unsur sifatida kirib kelib, keyinchalik voqealar rivojining ichki sababiga aylanishi mumkin. Uning ta’sir doirasi kengaygani sari obrazlarning munosabati, makonning semantik mazmuni, qahramonlarning qaror va harakatlari ham o‘zgaradi. Shu jihatdan xayoliy tasavvurni asarning boshlang‘ich sharti sifatida emas, balki syujet davomida turli poetik funksiyalarni yuzaga chiqaruvchi harakatdagi mexanizm sifatida talqin qilish ilmiy-fantastika poetikasining muhim qonuniyatlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek va ingliz adabiyoti materiallarining qiyosiy tahlili ham bu xulosani tasdiqlaydi. Turli milliy adabiy muhitlarda yaratilgan asarlarda xayolot manbayi va shakli bir-biridan farqlansa-da, uning badiiy vazifasi real muammolarni yangi mavjudlik sharoitida qayta ko‘rish imkoniyatini yaratish bilan bog‘lanadi. H. Shayxov ijodida kosmik va texnologik farazlar insoniyat taqdiri, ekologik muammolar va mavjudlik masalalariga olib boradigan badiiy yo‘nalish hosil qilsa, ingliz adabiyotidagi ayrim asarlarda biologik xavf, ekologik o‘zgarish yoki kosmik masofa ijtimoiy tartib, inson ruhiyati va tarixiy tafakkur ko‘lamini o‘zgartiruvchi vositaga aylanadi. Bu hol ilmiy-fantastik poetikaning milliy shakllari turlicha bo‘lishiga qaramay, uning badiiy tafakkur imkoniyatlari keng va ko‘p qatlamli ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalaridan yana biri shundaki, ilmiy-fantastik obrazni faqat “ilmiy” yoki “fantastik” belgilarining nisbatiga ko‘ra baholash yetarli emas. Obrazning poetik qiymati ilmiy farazning badiiy tizimga qanday singdirilgani, uning syujet bilan qanday aloqaga kirishgani va asarning konseptual mazmunini qay darajada shakllantirgani orqali belgilanadi. Shu sababli ilmiy-fantastik asarlarni tahlil qilishda obraz, xayoliy tasavvur, syujet va badiiy modelni alohida hodisalar sifatida emas, yagona poetik jarayonning o‘zaro bog‘langan qismlari sifatida o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv ilmiy-fantastik obraz poetikasini o‘rganish metodikasini ham takomillashtirish imkonini beradi. Xususan, obrazni aniqlashdan keyin uning mavjudlik tabiatini belgilash, badiiy modeldagi o‘rnini ko‘rsatish, xayolot bilan aloqasini ochish va syujet davomida funksional o‘zgarishini kuzatish izchil tahlil tamoyili sifatida qo‘llanishi mumkin. Bunday ketma-ketlik obrazning alohida poetik birlik sifatidagi

xususiyatlaridan asarning yaxlit badiiy konsepsiyasiga tomon harakat qilish imkonini beradi. Umuman, ilmiy-fantastik obraz poetikasini badiiy voqelikni modellashtirish jarayoni bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish janrning ichki mexanizmlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Xayoliy tasavvurning obrazlar tizimiga singishi, obrazlarning badiiy modelni konkretlashtirishi va syujet harakati orqali yangi semantik aloqalarning yuzaga kelishi ilmiy-fantastik asarning poetik yaxlitligini ta’minlaydi. Shu ma’noda ilmiy-fantastika nafaqat mavjud bo‘lmagan olamlarni tasvirlash, balki real voqelikni ehtimoliy, muqobil va konseptual shakllarda qayta ko‘rish imkonini beradigan o‘ziga xos badiiy tafakkur maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur badiiy ifoda usulilarni izchil o‘rganish esa o‘zbek ilmiy fantastikasining badiiy imkoniyatlarini jahon fantastik adabiyoti kontekstida yanada aniqroq belgilash, milliy fantastika poetikasining o‘ziga xos qonuniyatlarini nazariy jihatdan asoslash uchun zarur ilmiy zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asimov, I. (1950). *I, Robot.* New York: Gnome Press.

Ballard, J. G. (1962). *The Drowned World*. London: Victor Gollancz.

Bradbury, R. (1950). *The Martian Chronicles*. New York: Doubleday.

Britnikov, A. F. (1970). *Russkiy sovetskiy nauchno-fantasticheskiy roman*. Leningrad: Nauka.

Delville, M. (1998). *J. G. Ballard*. Liverpool: Liverpool University Press.

Ding, Z. (2024). Between man and machine: A posthumanist analysis of *I, Robot*. *Journal of Education, Humanities and Social Sciences*, *31*, 194–203.

Freedman, C. (2000). *Critical theory and science fiction*. Middletown: Wesleyan University Press.

Gakov, Vl. (1980). *Vitok spirali: Zarubezhnaya nauchnaya fantastika 60–70-kh godov*. Moskva: Molodaya Gvardiya.

Hanson, C. (2016). A catastrophic universe: Lessing, posthumanism and deep history. In K. Brazil, D. Sergeant, & T. Sperlinger (Eds.), *Doris Lessing and the forming of history* (pp. 164–180). Edinburgh: Edinburgh University Press.

Hayles, N. K. (1999). *How we became posthuman: Virtual bodies in cybernetics, literature, and informatics*. Chicago: University of Chicago Press.

Huxley, A. (1932). *Brave New World*. London: Chatto & Windus.

Hwang, S.-H. (2023). The various problems in *I, Robot* re-read as a posthuman discourse. *International Journal of Glocal Language and Literary Studies*, *15*(15), 61–88.

Lessing, D. (1992). *Canopus in Argos: Archives*. New York: Vintage Books.

Määttä, J. (2020). "Bloody unnatural brutes": Anthropomorphism, colonialism and the return of the repressed in John Wyndham's *The Day of the Triffids*. In K. E. Bishop, D. Higgins, & J. Määttä (Eds.), *Plants in science fiction: Speculative vegetation* (pp. 32–55). Cardiff: University of Wales Press.

Malmgren, C. D. (1993). Self and other in SF: Alien encounters. *Science Fiction Studies*, *20*(1), 15–33.

Maslen, E. (2014). *Doris Lessing*. Liverpool: Liverpool University Press.

Obidjonova, M. (2025a). Artificial consciousness in science fiction: Narrative functions and philosophical challenges. *The USA Journals TAJIIR*, *7*(12), 23–28.

Obidjonova, M. (2025b). Ingliz va o'zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari. *Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari* (pp. 351–356). Toshkent.

Orwell, G. (1949). *Nineteen Eighty-Four*. London: Secker & Warburg.

Osawa, H., Miyamoto, D., Hase, S., Saijo, R., Fukuchi, K., & Miyake, Y. (2022). Visions of artificial intelligence and robots in science fiction: A computational analysis. *International Journal of Social Robotics*, *14*(10), 2123–2133.

Quronov, D. (2004). *Adabiyotshunoslikka kirish*. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

Rabkin, E. S. (1976). *The fantastic in literature*. Princeton, NJ: Princeton University Press.

Sarimsoqov, B. (2022). *Badiiylik asoslari va mezonlari* (H. Ahmedov, To'plovchi). Toshkent: Bookmany Print.

Shayxov, H. (1980). Sirli nur. *G'aroyib ko'lanka: ilmiy-fantasik qissa va hikoyalar* (pp. 128–149). Toshkent: Yosh gvardiya.

Shelley, M. (1818). *Frankenstein; or, The Modern Prometheus*. London: Lackington, Hughes, Harding, Mavor & Jones.

Spiegel, S. (2008). Things made strange: On the concept of "estrangement" in science fiction theory. *Science Fiction Studies*, *35*(3), 369–385.

Sulton, I. (2005). *Adabiyot nazariyasi*. Toshkent: O'qituvchi.

Suvin, D. (1979). *Metamorphoses of science fiction: On the poetics and history of a literary genre*. New Haven: Yale University Press.

Watkins, S. (2010). *Doris Lessing*. Manchester: Manchester University Press.

Wells, H. G. (1895). *The Time Machine*. London: William Heinemann.

Wyndham, J. (1951). *The Day of the Triffids*. London: Michael Joseph.

References

Asimov, I. (1950). *I, robot*, New York, Gnome Press.

Ballard, J. G. (1962). *The drowned world*, London, Victor Gollancz.

Bradbury, R. (1950). *The Martian chronicles*, New York, Doubleday.

Britnikov, A. F. (1970). *Russkii sovetskii nauchno-fantasticheskii roman* [The Russian Soviet science fiction novel], Leningrad, Nauka.

Delville, M. (1998). *J. G. Ballard*, Liverpool, Liverpool University Press.

Ding, Z. (2024). Between man and machine: A posthumanist analysis of *I, robot*. *Journal of Education, Humanities and Social Sciences, 31*, 194–203.

Freedman, C. (2000). *Critical theory and science fiction*, Middletown, Wesleyan University Press.

Gakov, Vl. (1980). *Vitok spirali: Zarubezhnaia nauchnaia fantastika 60–70-kh godov* [A turn of the spiral: Foreign science fiction of the 1960s–1970s], Moscow, Molodaya Gvardiya.

Hanson, C. (2016). A catastrophic universe: Lessing, posthumanism and deep history. In K. Brazil, D. Sergeant, & T. Sperlinger (Eds.), *Doris Lessing and the forming of history*, 164–180, Edinburgh, Edinburgh University Press.

Hayles, N. K. (1999). *How we became posthuman: Virtual bodies in cybernetics, literature, and informatics*, Chicago, University of Chicago Press.

Huxley, A. (1932). *Brave new world*, London, Chatto & Windus.

Hwang, S.-H. (2023). The various problems in *I, robot* re-read as a posthuman discourse. *International Journal of Glocal Language and Literary Studies, 15*(15), 61–88.

Lessing, D. (1992). *Canopus in Argos: Archives*, New York, Vintage Books.

Määttä, J. (2020). "Bloody unnatural brutes": Anthropomorphism, colonialism and the return of the repressed in John Wyndham's *The day of the triffids*. In K. E. Bishop, D. Higgins, & J. Määttä (Eds.), *Plants in science fiction: Speculative vegetation*, 32–55, Cardiff, University of Wales Press.

Malmgren, C. D. (1993). Self and other in SF: Alien encounters. *Science Fiction Studies, 20*(1), 15–33.

Maslen, E. (2014). *Doris Lessing*, Liverpool, Liverpool University Press.

Obidjonova, M. (2025a). Artificial consciousness in science fiction: Narrative functions and philosophical challenges. *The USA Journals TAJIIR, 7*(12), 23–28.

Obidjonova, M. (2025b). Ingliz va o'zbek adabiyotida ilmiy fantastikaning narratologik asoslari [Narratological foundations of science fiction in English and Uzbek literature]. In *Filologik komparativistika va tarjimashunoslik masalalari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari* [Issues of comparative philology and translation studies: Proceedings of the international scientific and practical conference], Tashkent, pp. 351–356.

Orwell, G. (1949). *Nineteen eighty-four*, London, Secker & Warburg.

Osawa, H., Miyamoto, D., Hase, S., Saijo, R., Fukuchi, K., & Miyake, Y. (2022). Visions of artificial intelligence and robots in science fiction: A computational analysis. *International Journal of Social Robotics, 14*(10), 2123–2133.

Quronov, D. (2004). *Adabiyotshunoslikka kirish* [Introduction to literary studies], Tashkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

Rabkin, E. S. (1976). *The fantastic in literature*, Princeton, New Jersey, Princeton University Press.

Sarimsoqov, B. (2022). *Badiiylik asoslari va mezonlari* [Foundations and criteria of literary artistry], Tashkent, Bookmany Print.

Shayxov, H. (1980). Sirli nur [The mysterious light]. In *G‘aroyib ko‘lanka* [The strange shadow], 128–149, Tashkent, Yosh gvardiya.

Shelley, M. (1818). *Frankenstein; or, The modern Prometheus*, London, Lackington, Hughes, Harding, Mavor & Jones.

Spiegel, S. (2008). Things made strange: On the concept of “estrangement” in science fiction theory. *Science Fiction Studies, 35*(3), 369–385.

Sulton, I. (2005). *Adabiyot nazariyasi* [Theory of literature], Tashkent, O‘qituvchi.

Suvin, D. (1979). *Metamorphoses of science fiction: On the poetics and history of a literary genre*, New Haven, Yale University Press.

Watkins, S. (2010). *Doris Lessing*, Manchester, Manchester University Press.

Wells, H. G. (1895). *The time machine*, London, William Heinemann.

Wyndham, J. (1951). *The day of the triffids*, London, Michael Joseph.